

ISSN:3060-4567 Modern education and development
BADIIY ASARLARDAGI REALIYALARNI O'ZBEK TILIDAN
INGLIZ TILIGA TARJIMA QILISHDA MUAMMOLAR VA USULLAR.
(SAID AHMADNING "UFQ" ROMANI MISOLIDA)

Boyqulova Muxlisa

Abdullayeva Mohira

Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti talabalari

ANOTATSIYA: *Mazkur maqola o'zbek adabiyoti durdonalaridan biri Said Ahmad qalamiga mansub „Ufq“ („The horizon“) romaning birinchi kitobi ya'ni „Qirq besh kun“ („Fourty five days“) deb nomlangan qismini o'zbek tilidan ingliz tiliga tarjima qilish jarayonida sodir bo'lgan bir qancha realiyalar va usullarni tahlil qiladi.*

Realiya *faqat bir xalqqa xos bo'lgani va u boshqa xalq uchun notanish bo'lgani uchun tarjimada uni ifodalash uchun maxsus usul va metodlardan foydalaniladi. Realialar kovproq badiiy adabiyotlarda, shuningdek insonlarning og'zaki nutqida ishlatilib, u yerda nafaqat stilistik maqsadlarda, balki milliy, mahalliy va tarixiy kolorit (buyoqdorlikni) tug'dirish uchun xizmat qiladi.*

Kalit so'zlar: *tarjima, badiiy tarjima, realiya, usul, transliteratsiya, analogiya, kalkalash, transkripsiya.*

Annotation: *This article analyzes the process of translating the first part of Said Ahmad's novel "Ufq" (The Horizon), titled "Qirq besh kun" (Forty-five Days), from Uzbek to English. The focus is on the translation of realia, which are cultural elements specific to a particular nation and often unfamiliar to other cultures.*

Realia, *frequently encountered in literary works and everyday language, serves not only stylistic purposes but also creates a sense of national, local, and historical identity. This analysis delves into the various methods and techniques employed in the translation of realia, addressing the challenges of conveying their specific cultural meaning to a foreign audience.*

Keywords: translation, literary translation, realia, method, transliteration, analogy, calque, transcription.

Realiya (lotincha) “real” – “moddiy”, “haqiqiy narsalar” degan ma’noni bildirib, mavhum tushunchalardan farqli ravishda borliqda mavjud narsalarni anglatadi. Realiyalarni boshqa yondosh tushunchalardan farqlab turuvchi asosiy belgi ham ularning aynan predmet-narsa ma’nosiga ega bo’lganligidir. Realiyalarni chuqurroq tadqiq etish va ularning milliy va tarixiy koloritni aks ettirish xususiyatlarini o’rganish harakatlari XX asrning 50-yillaridan boshlangan. Bu tilshunoslar orasida o’zaro bahs-munozaralarni keltirib chiqargan. Mazkur masalaning haqiqiy mohiyati diqqat markaziga olinmaganligi sababli asosiy to’xtamga kelisholmagan. Mavjud ilmiy tadqiqotlarni tahlil qilish natijasida realiyalarga baho berish bo’yicha ikki xil qarash borligini ko’rish mumkin: ¹

- 1) Tarjimashunoslik nuqtayi nazaridan yondashuv
- 2) Mamlakatshunoslik nuqtayi nazaridan yondashuv.

Jumladan, M. L. Vaysburd realiyalarga mamlakatshunoslik nuqtayi nazaridan to’xtalib, shunday ta’rif beradi: “Bu muayyan mamlakat ijtimoiy va madaniy hayoti voqealari, ijtimoiy korxonalar yoki tashkilotlarning nomlari, kundalik buyum nomlari, tarixiy shaxslar nomlari va yana boshqa ko’plab narsalar nomlaridan iborat”. Realiya tushunchasini dastlab madaniyatga xos obyektlar va hodisalar sifatidarus tarjimashunosligiga 1941-yili Andrey Fedorov kiritdi va ularni “realiya so’zlar” deb atashni taklif qildi. A.V.Fedorov “realiya” deganda “ijtimoiy hayot va moddiy turmush tarzini anglatuvchi”, faqat mahalliy hodisani ifodalovchi va boshqa xalqlarning turmushida va tushunchasida tengi

¹ https://oriens.uz/media/journalarticles/124_Qutbiddinova_Noila_Rivojiddin_qizi_771-777.pdf

yo‘q bo‘lgan so‘zlar”ni tushunadi. Realialar o‘zga tildagi matnlarni tushunish uchun zarur bo‘lgan milliy-madaniy birliklar hisoblanadi. Boshqa mamlakatlar tarixi va muhim tarixiy voqealari, madaniyati, xalq og‘zaki ijodi, siyosiy hayoti haqida yetarlicha bilimga ega bo‘lmaslik til bilimlari borasida kompetensiyani yo‘qotishga olib keladi. A.D. Shveytser fikriga ko‘ra, realialarning o‘ziga xosligi shundan iboratki, ular boshqa til va madaniyat tashuvchilari bilim fondidan tashqaridagi, ya’ni ular uchun begona bo‘lgan tushunchalar hisoblanadi. G‘arb tarjima maktabi olimlaridan biri Pedrsen realiyani umumiy foydalanishdagi asosiy ma’nosi tufayli juda noaniq va chalkash deya tanqid qiladi. Uning fikrlariga qaraganda, realiyaning asl nomlanishi (“real narsalar”) ham haqiqatga ziddir. Realia so‘zlar mavhum tushunchalarni ham anglatishi mumkin. Realialarni tarjima qilishda Asosan biz ko‘pgina usullardan foydalanamiz misol uchun:

1. Kalkalash. Kalka (frans. caique — nusxa, taklid) — boshqa til lug‘aviy birligidan ona tili vositalari asosida nusxa ko‘chirish (so‘zma-so‘z tarjima qilish) natijasida yuzaga kelgan so‘z, atama yoki birikma²

2. Transliteratsiya. [trans.. + lot. lit-tera — harf] Biror alifbo asosida yozilgan matnlar yoki alohida so‘zlarni boshqa bir alifbo vositalari bilan harfma-harf aks ettirish. Yevropacha nomlarning o‘zbekcha trans-literatsiyasi.³

3. Transkripsiya. (transcriptio ko‘chirib yozish) — yozuvning nutq tovushlari talaffuzini aniq ifodalash uchun ishlatiladigan sun’iy (shartli) turi; nutq bo‘laklari (tovush, bo‘g‘in, so‘z)ning tovushiy sifatlarini yozuvda aniq aks ettirish usuli.⁴

4. Analogiya. (yun. analogia — muvofiqlik, aynanlik, o‘xshashlik) — yaniy muqobil variant berish predmet va hodisalarda bi-ror xususiyatning o‘xshashligi⁵.

² <https://uz.wikipedia.org/wiki/Kalka>

³ <https://uz.m.wiktionary.org/wiki/transliteratsiya>

⁴ <https://uz.m.wikipedia.org/wiki/Transkripsiya>

⁵ <https://uz.m.wikipedia.org/wiki/Analogiya>

5. Tasviriy usul. Muayyan soʻz yoki iboraning goho na ekvivalent, na muqobil varianti va na kalka yordamida oʻgʻirishning imkoni topiladi

Biz realiyalarni boshqa jihatdan ham oʻrganamiz, bu soʻz birliklari albatta boshqa tillarda aynan oʻziga mos soʻz bilan ifodalanib, unga ekvivalent sifatida ishlatiladi, lekin koʻchma holatda u bizning milliy hamda madaniy jihatdan oʻzimizni shu soʻzlar bilan bogʻliq holda anglashimizni bildiradi. Shuningdek, ushbu soʻzlar bizni turmush tarzimiz da, odatlarimizda va bizni oʻrab turgan tevarak atrofimizdagi tabiat bilan bogʻliq ekanligini koʻrishimiz mumkin.

Misol uchun Said Ahmadning "Ufq" trilogiyasida o'zbek xalqiga mos bo'lgan realiya so'zlar mavjud. Ular:

Shuvoq(11-bet)-Mayda oqish bargli, oʻziga xos hidli koʻp yillik yovvoyi oʻsimlik.

Kolxoz(19-bet)-Shoʻro davrida: dehqonlarning asosiy ishlab chiqarish qurollarini umumlashtirishga va qishloq xoʻjalik ishlab chiqarishini birgalashib (jamoaviy) boshqarishga asoslangan ixtiyoriy uyushmasi; kollektiv xoʻjalik, jamoa xoʻjaligi.

G'unajin(23-bet)-Ikki yoshdan oshgan urgʻochi qoramol.

G'urra(24-bet)-Peshona yoki boshda hosil boʻlgan qattiq sshish.

Salmoqla(25-bet)"Vazminlik bilan, dona-dona qilib gapirmoq, soʻzlammoq."

Salla(25-bet)-Uzunligi 1,5 metrdan 7 metrgacha boʻladigan, doʻppi, kuloh, telpak ustidan oʻraladigan sidirgʻa mato, doka; musulmon erkaklarning bosh kiyimi.

Idora(29-bet)-Maʼlum bir ijtimoiy, davlat, xoʻjalik, savdo va shu kabilar tarmoqlarni boshqarish uchun shtatli xodimlari va maʼmuriyati boʻlgan tashkilot, muassasa, boshqarma va ular oʻrnashgan bino.

Xarj(33-bet)-Biror ehtiyoj uchun ishlatiladigan pul, mablagʻ; sarf.

Samovar(36-bet)-Choy qaynatishga moʻljallangan, suvxonali va oʻtxonali roʻzgʻor aasbobi.

Shiypon(46-bet)-Dalada ishlovchilarning dam olishi va ovqatlanishi uchun maxsus qurilgan yozlik bino yoki ayvon.

Gardan(57-bet)-Gavdaning bosh bilan yelka orasidagi qismi; bo‘yin; bo‘yinning orqa qismi.

Sepoyachi(62-bet)-Sepoya to‘siqlar yasovchi va o‘rnatuvchi mutaxassis.

Zambil(67-bet)-ikki parallel dastaga tol yoki tut novdalaridan o‘rtasini chuqurroq qilib to‘qilgan ish quroli (keyinchalik esa dastalarga ko‘nda-langiga yupqa taxtalar, shuningdek, tunuka qoqilgan).⁶

Xulosa

Xulosa-O'zbek milliy xususiyatlari va realiyalarni ingliz tiliga tarjima qilishda transkripsiya, transliteratsiya, izohlash, tushuntirish, sharhlash, muqobil variantlardan foydalanish kabi tarjima usullari samarali usullardan hisoblanadi. Bunday usullarni qo'llashda tarjimonlar kontekstning o'rniga, asar muallifining mazkur realiyani ishlatishdan ko'zlagan maqsadiga e'tibor berishlari talab qilinadi. Realialarni boshqa muqobilsiz leksikalardan farqlamoq lozim. Zero bu jihat ular tarjimasida muhim o'rin tutdi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

- 1.O'zbek tilining izohli lug'ati 2007
- 2.imlo.uz
- 3.https://oriens.uz/media/journalarticles/124_Qutbiddinova_Noila_Rivojiddin_qizi_771-777.pdf
4. Said Ahmad "Ufq" trilogiyasi 1964-1974 yillar
5. O'zbek tilining izohli lug'ati 2008
- 6.<https://uz.wikipedia.org/wiki/Kalka>
- 7.<https://uz.m.wikipedia.org/wiki/Transkripsiya>

⁶ Said Ahmad "Ufq" trilogiyasi 67-bet